



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'ZBEK TILIDAGI MATNLARNI TAHLIL QILISH

Komilova Z.X

Farg'ona Davlat universiteti
xumor851@mail.ru

Xadichaxon Yo'ldoshova
FarDU talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axborot texnologiyalari yordamida o'zbek tilidagi matnlarni tahlil qilish masalalari yoritilgan. Maqolada zamonaviy komputer lingvistikasi sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarining o'zbek tili uchun qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek avtomatik tahlil qilish Grammatik va semantik tahlil matnni tuzilmaviy ajratish so'z turkumlarini ajratish jarayonlarining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Axborot texnologiyalari yordamida o'zbek tili matnlarini tahlil qilish ilmiy tadqiqotlar ta'lim jarayoni hamda axborot tizimlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, grammatik va semantik tahlil, matnni tuzilmaviy ajratish, avtomatik tahlil qilish, zamonaviy komputer lingvistikasi.*

Kirish. Hozirgi davrda axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. Tilshunoslik va matn tahlili sohalarida ham zamonaviy kompyuter texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. O'zbek tili matnlarini avtomatik tarzda tahlil qilish, ularni qayta ishlash va ma'lumot olish jarayonlarini soddalashtirishda sun'iy intellekt hamda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tilidagi matnlarni tahlil qilishda asosiy yo'nalishlardan biri — morfologik, sintaktik va semantik tahlilni amalga oshirishdir. Morfologik tahlil so'z shakllarini aniqlashga, sintaktik tahlil esa gap tuzilishini tahlil qilishga xizmat qiladi. Semantik tahlil orqali esa matnning mazmuni, ma'no qatlamlari, kontekst va ifoda vositalari aniqlanadi. Shuningdek tahlil dasturlari yaratilishi milliy tilni raqamli muhitga moslashtirishda muhim qadam hisoblanadi. Bu jarayon ilmiy tadqiqotlarda, ta'lim tizimida hamda axborot almashinuvida samaradorlikni oshiradi. Axborot texnologiyalarining bunday qo'llanilishi o'zbek tili imkoniyatlarini kengaytiradi, tilni o'rganish va o'qitish jarayonini zamonaviy usullar bilan boyitadi hamda til madaniyatini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'lik faoliyat soxalari tashkil kiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi"



turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi. Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish— inson xayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bog'liq ob'ektiv jarayon xisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga, iqtisodning o'sishi hamda fan-texnika taraqqiyotining jadallashishiga xizmat qiladi. Mehnat samaradorligining bundan keyingi o'sishi va farovonlik darajasini ko'tarish. katta xajmdagi multimediya axborotini (matn, grafika, video tasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish ishlashga yangi intellektual vositalar va inson mashina interfeyslardan foydalanish asosidagina yerishish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari yordamida o'zbek tilidagi matnlarni tahlil qilish — zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon o'zbek tilining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi, ilmiy izlanishlar va ta'lim jarayonini yengillashtiradi. Kelajakda bu sohada yaratiladigan dasturiy vositalar va sun'iy intellekt tizimlari o'zbek tilining xalqaro miqyosda rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. Форум молодых ученых, (3), 35-43.
2. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni-The role of information technologies in the development of the digital economy.
4. Abdullayeva, M. (2020). O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

Ta'lim muhitining transformatsiyasi: zamonaviy o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent 2025-yil 16-aprel, 22-23-betlar.



5. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.

6. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.

7. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).

8. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. *Scientific and practical journal "Technique"*. Issue No.1.

9. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. *Education and innovative research*. Bukhara State University, 2(2), 234-237.

10. Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. *Экономика и социум*. 2021, № 4-1 (83), -С.167-170.

11. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 234-237.

12. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)*. ISSN, 2249-7137.